



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



ERTAK BOLANING SHAXSIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRUVCHI MANBA SIFATIDA

D.A.Raxmonberdiyeva

*Guliston davlat pedagogika instituti Ta'lim
va tarbiya nazaryasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi magistranti*

E-mail: diyoraminyigitova@gmail.com

Telefon raqam: +998990397825

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15379293>

Annotatsiya. Bolalik – inson shaxsiyati shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Shu davrda bolaning ruhiyati, xulq-atvori va axloqiy qadriyatlari rivojlanadi. Bu jarayonda ertaklar muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat o'yin-kulgi, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu tezisdagi ertaklarning bolaning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish va tuzatishda qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ertak, shaxsiy fazilatlar, qo'rqqan, qat'iyatli, vosita, madaniy-psixologik, ertak tinglash, stress, qo'rquv.

Аннотация. Детство — это один из самых важных этапов формирования человеческой личности. В этот период развиваются психология ребенка, его поведение и моральные ценности. В этом процессе сказки занимают важное место, так как они служат не только развлечением, но и воспитательным средством. В данном тезисе будет проанализировано, какое значение имеют сказки в формировании и коррекции личностных качеств ребенка.

Ключевые слова: сказка, личные качества, бесстрашный, настойчивый, средство, культурно-психологический, прослушивание сказки, стресс, страх.

Annotation. Childhood is one of the most important stages in the formation of an individual's personality. During this period, a child's psyche, behavior, and moral values develop. Fairy tales play a significant role in this process, as they serve not only as entertainment but also as an educational tool. This thesis analyzes the importance of fairy tales in shaping and correcting a child's personal characteristics.

Key words: fairy tale, personal qualities, fearless, determined, tool, cultural-psychological, listening to fairy tales, stress, fear.

KIRISH

Har doim bolaning ruhiy salomatligini saqlash masalalari ustuvor bo'lib kelgan. Bizga ma'lumki, ertak ijodiy salohiyatni ochib beradi, madaniy-psixologik hodisa insoniyatning ma'naviy tajribasi bo'lib xizmat qiladi va bolaning barkamol shaxsini shakllantirish uchun psixologning bolalar bilan tuzatish ishlarida jozibali vositaga aylanadi.



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Ertakni idrok etish va axloqiy saboqlarini hayotga tatbiq etish bolaning barkamol shaxsini shakllantirish shartidir. Bundan tashqari, u bolaning tasavvuriga bevosita bog'liq bo'lgan hissiy sohasiga ta'sir qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z navbatida bolalarning shaxsiy fazilatlarini – bu ularning xulq-atvori, munosabati va ijtimoiy hayotdagi o'zini tutish tarzida namoyon bo'ladigan ichki sifatlardir. Ular bolaning tarbiyasi, atrof-muhit, oila muhitidagi munosabatlar va shaxsiy tajribasi orqali shakllanadi.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati. Ertaklar bolalarda quyidagi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Halollik va adolatparvarlik – ezigulik va yovuzlik to'qnashuvi orqali adolatli bo'lish zarurligi tushuntiriladi. Adolatning har doim g'alaba qozonishi, yovuzlikning esa hech qachon g'alaba qila olmasligi bolalarga uqtiriladi. Bu kabi ertaklarda ko'zlangan bosh maqsad bolalarda barcha ishga vijdonan yondashish, to'g'risozlik va halollik kabi hislatlarni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Jasorat va mardlik – qahramonlarning jasorati bolalarni qo'rqmas, qat'iyatli bo'lishga undaydi. Bundan tashqari bolalarda jasur qahramonlarga o'xshashlik istagi paydo bo'ladi va ularga asta sekin taqlid qila boshlaydilar. Bu turdagi ertaklarni asosan tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishga qiynaladigan bolalarga foydasi ancha yuqori hisoblanadi.

Mehribonlik va hamdardlik – Ertak qahramonlarining boshqalarga yordam berishi orqali bolalar boshqalarga mehribon bo'lish muhimligini tushunadilar. Ular bu orqali ota-onalari, aka-uka, opa-singil va bobo va buvilariga ham mehribon bo'lishni o'zidan kichiklarga izzatda bo'lishni o'rganadi.

Mehnatsevarlik va sabr-toqat – "Zumrad va Qimmat", "Boy va kambag'al" kabi ertaklarda mehnatsevar inson mukofotlanishi, dangasalar esa jazolanishi ko'rsatiladi. Har qanday muvaffaqiyat ortida ham kuchli mehnat va sabr yotishi tushuntiriladi.

Bu fazilatlar bolaning sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Ularni rivojlantirish uchun ota-onalar va pedagoglar tomonidan mehr, sabr va to'g'ri tarbiya zarur.

Ertaklar shaxsiy xususiyatlarni tuzatishda vosita sifatida. Agar bola tajovuzkor yoki qaysar bo'lsa, unga mos keladigan ertaklar orqali uni xushmuomala va sabrli bo'lishga o'rgatish mumkin. Masalan:

- juda qaysar bolalarga "Qo'ng'iroqcha" kabi ertaklar yordamida itoatkorlik va tartiblilik o'rgatiladi;



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



- qo'rqoq bolalar uchun "Alpomish", "Rustam" kabi qahramonlik ertaklari jasoratni shakllantirishga yordam beradi va botirlik hamda jasurlik kabi fazilatlarini rivojlantirishda asosiy ko'makchi bo'ladi;

- xasis yoki ochko'z bolalarga "Xasis boy" yoki "Oltin baliq" ertaklari orqali saxovat va qanoat tuyg'ulari singdiriladi va bu orqali tengdoshlariga o'rnak bo'la olishi ham tushuntiriladi.

Ertaklarning psixologik ta'siri. Ertaklar bolaga hayotiy muammolarni yengishda yordam beradi. Masalan, bola ertakdagi qahramonlar bilan o'zini taqqoslab, o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglaydi. Psixologik nuqtai nazardan ertak tinglash bolaning stress va qo'rquvlarini yengishiga yordam beradi.

Ertaklar bolalarning ruhiy va psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat ko'ngil ochish, balki turli hissiyotlarni, qadriyatlarni va hayotiy tajribalarni o'rganishga yordam beradi.

Umuman olganda, ertaklar nafaqat bolalar uchun ko'ngilochar vosita bo'lib qolmaydi, balki ularning psixologik salomatligi va rivojlanishi uchun ham juda foydali hisoblanadi. Faqatgina ertaklardan to'g'ri foydalana olinsagina bolalar hayotida ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ertaklar bolaning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish va tuzatishda kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ular bolalarni axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor normalari bilan tanishtirib, hayotiy tajriba orttirishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr).
2. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboeva, M.X.Asranboeva "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" Toshkent-2017.
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent-2019 "Tafakkur" nashriyoti.
4. Bilveren, T. (2015). Babürnâmedeki bazı kelimelerin tarihî ve etimolojik tahlili. Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 5(9), 114-118.
5. Zulxumor, X. (2023). Bobur–semantikaning sohir bilimdoni. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
6. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. O 'zbekiston, 75.
7. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O 'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
8. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent – 2022.